


## 2019-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2019-yil 1-aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) soni 27,9 mingtani tashkil qilib, shundan xizmat sohasida hisobga olingan korxonalar va tashkilotlar soni 18,1 mingta (64,8 %) ni tashkil etdi.

### 2019-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sondagi ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2019-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibida eng yuqori ulushni, savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi (37,2 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 10,7 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,8 % ga yetdi.

## 2019-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,5 % ga teng bo'ldi.


Sog'liqni saqlash sohasida va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 427,1 mlrd. so'mga oshib, 2623,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,7 % ni tashkil etdi.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari etakchi o'rinni egallaydi. Ularning ulushi 30,6 % ni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan hajmi 121,1 mlrd. so'mga oshdi.

## 2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %




Bundan tashqari, eng katta ulush moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish, shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda kuzatiladi.

## 2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2623,8</b>	<b>107,7</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	136,1	97,7
Moliyaviy xizmatlar	314,5	159,9
Transport xizmatlari	674,4	101,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	622,8	100,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	69,2	100,0
Savdo xizmatlari	802,0	103,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	74,2	100,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	128,1	119,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	36,6	101,0
Ijara xizmatlari	93,3	98,8
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	78,7	100,2
Shaxsiy xizmatlar	115,8	99,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	24,0	105,6
Boshqa xizmatlar	76,9	105,0

Viloyatimizda olib borilayotgan kredit siyosati bo'yicha islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 159,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (119,3 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarida (105,6 %) qayd etildi.


## 2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Viloyatimizning iqtisodiy rivojlanishida transport muhim rol o'ynaydi. Transport xizmatlari umumiy hajmining asosiy qismi avtomobil transportida yuklar va yo'lovchilarni tashish xizmatlari hisobiga to'g'ri keladi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transportining ulushi 92,3 % ni tashkil etadi.

### 2019-yil yanvar-mart oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %



Yordamchi transport faoliyatining transport xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 7,7 % ga yetdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 802,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 30,6 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 74,6 % ni tashkil etdi.

## 2019-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %




Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 14,8 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmida 10,6 % ni tashkil etdi.



2019-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 314,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 159,9 % ni tashkil etdi.

## 2019-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlari tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlarning o'sish omillari sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, jumladan, pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar hajmining o'sishi bilan izohlanadi.

2019-yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 128,1 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 19,3 % ni tashkil etdi.

2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi esa 8,6 mlrd. so'mga oshdi va 69,2 mlrd. so'mga yetdi.


## 2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2623,8</b>	<b>107,7</b>
Samarqand shahri	1659,5	108,5
Kattaqo'rg'on shahri	57,1	104,5
tumanlar:		
Oqdaryo	61,3	104,8
Bulung'ur	66,4	105,7
Jomboy	68,7	107,6
Ishtixon	62,2	105,7
Kattaqo'rg'on	57,4	105,6
Qo'shrabot	47,9	104,3
Narpay	57,2	106,6
Payariq	61,8	105,7
Pastdarg'om	79,1	106,4
Paxtachi	47,8	103,9
Samarqand	96,1	108,3
Nurobod	48,3	104,6
Urgut	83,3	107,7
Tayloq	69,7	107,5

2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Samarqand shahrida (1659,5 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil etdi.


Shu bilan birga eng yuqori o'sish sur'atlari Samarqand (108,3 %), Urgut (107,7 %), Jomboy (107,6 %) va Tayloq (107,5 %) tumanlarida qayd etildi.

## 2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Kattaqo'rg'on shahrida (104,5 %), Paxtachi (103,9 %), Qo'shrabot (104,3 %) va Nurobod (104,6 %) tumanlarida kuzatildi.

## 2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %




Hududlar bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulushlarni Samarqand shahri (63,2 %), Samarqand (3,7 %), Urgut (3,2 %) va Pastdarg'om (3,0 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kichik ulushlar Nurobod (1,8 %), Paxtachi (1,8 %), Qo'shrabot (1,8 %) va Narpay (2,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 689,3 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 105,4 % ni tashkil etdi.

## 2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-85-35